



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

70310301 – Psixologiya
Magistratura



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

70310301 – Psixologiya

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: ATABAYEVA NARGIS BATIROVNA

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

fan doktori (DSc), professor



A'zo: LOUISE SAMANTHA DELICATO

Heriot-Watt University

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260035
Xulosa raqami	1117
Xulosa sanasi	25.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 42-uy. Guvohnoma: MAS № 0000258, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Psixologiya
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70310301
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000258, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70310301 – Psixologiya
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70310301 – Psychology
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70310301 – Психология
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	masofaviy
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Psixolog, pedagog-tadqiqotchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	10 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 42-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan tashkiliy-huquqiy hujjatlar, boshqaruv tizimiga oid materiallar hamda ichki me'yoriy asoslar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun shakllantirilgan tashkiliy-boshqaruv tizimi universitetda amalda bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan yetarli darajada ta'minlangani aniqlandi. Ta'lim dasturini boshqarish kafedra va fakultet darajasidagi tuzilmalar orqali tashkil etilgan bo'lib, ularning vakolatlari, funksiyalari hamda mas'uliyat doiralari aniq belgilangan. Ichki sifatni ta'minlash, ta'lim jarayonini monitoring qilish va natijadorlikni baholash mexanizmlari amaliyotga joriy etilgani qayd etildi. Kafedra va fakultet bosqichlarida boshqaruv vakolatlarining aniq taqsimlangani boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirish, vazifalar ijrosini muvofiqlashtirish hamda ta'lim sifati ustidan tizimli nazoratni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. O'tkazilgan tahlillar tashkiliy-boshqaruv tizimi ta'lim dasturini barqaror va sifatli amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratganini ko'rsatdi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida taqdim etilgan ta'lim dasturi, o'quv-me'yoriy hujjatlar hamda muqobil tashrif yakunlari bo'yicha kiritilgan tuzatishlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida 70310301 – "Psixologiya (masofaviy)" magistratura ta'lim dasturi O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari, magistratura bosqichi uchun belgilangan talablar hamda ta'lim standartlari asosida shakllantirilgani aniqlandi. Muqobil tashrif davomida bildirilgan tavsiya va mulohazalar inobatga olinib, ta'lim dasturiga tegishli tuzatishlar kiritilgani universitetda sifatni uzluksiz takomillashtirish va tashqi baholash natijalariga ochiq yondashuv mavjudligini ko'rsatadi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan

o'quv natijalari hamda bitiruvchida shakllantirilishi lozim bo'lgan kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, magistratura bosqichining mazmuni kasbiy va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilgan. Ta'lim dasturi yakunida bitiruvchiga "Psixolog, pedagog-tadqiqotchi" kvalifikatsiyasi berilishi nazarda tutilgan. O'tkazilgan tahlillar ta'lim dasturi mazmunining belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga muvofiq ishlab chiqilganini ko'rsatdi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida taqdim etilgan o'quv rejalari, fan dasturlari, baholash tizimiga oid hujjatlar hamda o'quv jarayonini tashkil etishga doir materiallar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida 70310301 – "Psixologiya (masofaviy)" magistratura ta'lim dasturi zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgani, uning mazmuni Milliy malakalar ramkasi, Davlat ta'lim standartlari, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni hamda xalqaro ta'lim standartlari talablariga muvofiq shakllantirilgani aniqlandi. O'quv jarayonida nazariy tayyorgarlik bilan bir qatorda amaliy psixodiagnostika, psixologik maslahat berish va ilmiy-tadqiqot metodologiyasiga oid mashg'ulotlarga alohida e'tibor qaratilgani qayd etildi. Magistratura bosqichining masofaviy shaklda amalga oshirilishini inobatga olib, ta'lim natijalarini baholash jarayonida onlayn nazorat vositalaridan samarali foydalanish hamda akademik halollik tamoyillariga rioya etilishi ta'lim sifati va baholashning xolisligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etildi. O'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimi ta'lim dasturining maqsad hamda kutilayotgan natijalariga erishish uchun zarur sharoitlarni ta'minlaydi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida 70310301 – "Psixologiya (masofaviy)" magistratura ta'lim dasturi bo'yicha talabalarni qabul qilish, talabalar harakatini boshqarish hamda qo'llab-quvvatlash tizimiga oid hujjatlar va amaliyot kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida qabul jarayonlari, belgilangan talab va mezonlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgani, ularning ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga muvofiq amalga oshirilayotgani aniqlandi. Qabul mezonlari abituriyentlar uchun ochiq e'lon qilinishi, talabalar harakatini tartibga soluvchi mexanizmlar hamda apellyatsiya tartiblarining belgilangan tartibda joriy etilgani qayd etildi. Masofaviy magistratura ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda magistrantlarni texnik, akademik va psixologik jihatdan uzluksiz qo'llab-quvvatlash tizimining mavjudligi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi muhim

omillardan biri sifatida baholandi. O'tkazilgan tahlillar talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarish tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga mos ravishda yo'lga qo'yilganini ko'rsatdi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida 70310301 – "Psixologiya (masofaviy)" magistratura ta'lim dasturining inson resurslari bilan ta'minlanganlik holati, professor-o'qituvchilar tarkibi hamda kadrlar salohiyatiga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur professor-o'qituvchilar tarkibi shakllantirilgani, jami 32,5 shtat birligi mavjudligi hamda ularning 77 foizi asosiy shtatdagi xodimlar hissasiga to'g'ri kelishi aniqlandi. Mazkur ko'rsatkich amaldagi me'yoriy talabdan yuqori bo'lib, ta'lim jarayonining uzluksizligi va kadrlar tarkibining barqarorligini ta'minlash uchun yetarli asos yaratadi. Shu bilan birga, psixologiya magistraturasi o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, professor-o'qituvchilarning amaliy psixologik konsultatsiya, psixodiagnostika va ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha tajribasi ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biri ekani qayd etildi. Mavjud kadrlar salohiyati ta'lim dasturining maqsad va vazifalarini samarali amalga oshirish uchun yetarli darajada shakllantirilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, moddiy-texnik baza, o'quv-uslubiy ta'minot hamda axborot-resurslarga oid ma'lumotlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida 70310301 – "Psixologiya (masofaviy)" magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik sharoitlar, o'quv-uslubiy ta'minot va axborot-resurs bazasi shakllantirilgani aniqlandi. Universitetda amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari uchun jihozlangan o'quv xonalari mavjud bo'lib, ular ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishni ta'minlash imkonini beradi. Psixologiya yo'nalishining amaliy xususiyatlarini inobatga olgan holda psixodiagnostik metodikalar jamlanmasi, psixologik konsultatsiyalarni tashkil etishga mo'ljallangan maxsus xonalar hamda amaliy mashg'ulotlar uchun zarur vositalarning mavjudligi ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida qayd etildi. Shu bilan birga, masofaviy magistratura dasturining samaradorligini yanada oshirish maqsadida raqamli psixologik test platformalari va onlayn diagnostika vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq deb hisoblandi. Mavjud moddiy-texnik va axborot-resurs ta'minoti ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni ta'minlaydi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Masofaviy dastur uchun raqamli test platformalarini kengaytirish tavsiya etiladi.
- ✓ Psixodiagnostik metodikalar to'plamini boyitib borish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ Raqamli test platformalari va psixodiagnostik metodikalar bazasini kengaytirish.
- ✓ Masofaviy magistrantlarga texnik, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning masofaviy o'qitish metodikasi bo'yicha malakasini oshirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, 70310301 – "Psixologiya (masofaviy)" magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturini boshqarish tizimi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida shakllantirilgani, kafedra va fakultet darajasidagi boshqaruv tuzilmalari o'rtasida vakolatlar aniq taqsimlangani hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari samarali faoliyat yuritayotgani aniqlandi. Muqobil tashrif davomida bildirilgan tavsiya va mulohazalar inobatga olinib, ta'lim dasturiga tegishli tuzatishlar kiritilgani sifatni uzluksiz takomillashtirish tamoyiliga amal qilinayotganini ko'rsatadi. Ta'lim dasturi Milliy malakalar ramkasi, Davlat ta'lim standartlari hamda O'zbekiston Respublikasining O'RQ-989-son Qonuni talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv jarayoni va baholash tizimi zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan. Talabalarni qabul qilish va qo'llab-quvvatlash tizimi amaldagi me'yoriy talablar asosida yo'lga qo'yilgan. Professor-o'qituvchilar tarkibi ta'lim dasturi ehtiyojlariga mos shakllantirilgan bo'lib,

32,5 shtat birligining 77 foizini asosiy shtatdagi xodimlar tashkil etishi kadrlar barqarorligini ta'minlaydi. Universitetda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur o'quv xonalari hamda moddiy-texnik infratuzilma yaratilgan. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, uning sifatli amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga javob beradi va MUVOFIQ deb baholanadi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

